

O'ZBEK ADABIYOTINING YIRIK NAMOYANDALARIDAN BIRI ABDULLA QODIRIYNING ASARLARI, SHE'RLARI, KITOBLARI

Abdulkarimov Narimon Abduruaf o'g'li

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Mexanika fakulteti

Texnologik mashinalar va jihozlar kafedrasida 2 bosqich talabasi

E-mail: mailjasurbeka785@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Abdulla Qodiriyning asarlari, she'rlari, kitoblari haqida so'z yuritiladi.

Kalit So'zlar: Abdulla Qodiriy, yozuvchi, shoir, dramaturg, tarjimon, hikoya, qissa, mukofot.

Abdulla Qodiriy ijodiy faoliyatining boshlanishi 1910-yillarning o'rtalariga to'g'ri keladi. "Sadoi Turkiston" gazetasining 1914-yil 1-aprel sonida Abdulla Qodiriy imzosi bilan „Yangi masjid va maktab“ sarlavhali xabar bosiladi. Bu bo'lajak adibining matbuotdagi dastlabki chiqishi edi. Oradan ko'p o'tmay, uning „To'y“, „Ahvolimiz“, „Millatimga“, „Fikr aylagil“ kabi she'rlari, "Baxtsiz kuyov" dramasi, "Juvonboz" hikoyasi chop etiladi (1914—1915). Abdulla Qodiriy ijodining dastlabki namunalari bo'lgan bu asarlar millatparvarlik, ma'rifatparvarlik ruhida yozilgan bo'lib, jadidchilik g'oyalari bilan sug'orilgandir. Muallif unda xalqning zabun holatidan kuyib so'zlaydi, millatni uyg'onishga da'vat etadi, fikrlashga chorlaydi. Abdulla Qodiriyning "ULOQDA" hikoyasi (1916) avvalgi asarlari bilan tenglashtirib bo'lmaydigan darajada yuqori bo'lib, XX tongidagi o'zbek realistik adabiyotining cho'qqisi, realistik hikoyaning eng yaxshi namunasi hisoblanadi.

Ijodiy ishlari - "O'tgan kunlar" (roman), "Mehrobdan chayon" (roman), "Obid ketmon" (qissa), "Girvonlik Mallaboy", "Xotinboz", "Baxtsiz kuyov", "Millatimga", "Yovuz ruhlar iskanjasida".

Mukofotlari - 1991 yil 25 avgust kuni O'zbekiston prezidenti farmoni bilan "Mustaqillik" ordeniga sazovor bo'lgan.

Ekranizatsiyalari 1969 — "O'tgan kunlar", rejissyor Yo'ldosh Agzamov, bosh rolda O'lmas Alixo'jayev. 1973 - "Zulmatdan qochish". "Mehrobdan chayon" romani asosida. Rejissyor Yo'ldosh Agzamov. senariy muallifi S. Muhamedov, operator - A. Pann. Rollarda: I. Ergashev, T. Shokirova, A. Xo'jayev, Sh. Irgashev, Ya. Ahmedov, N. Rahimov. 1997 — "O'tgan kunlar", rejissyor M. Abzalov, bosh rolda B. Muhamatkarimov.

U dastlab eski usul maktabda, so'ng yangicha xat-savod chiqaradigan rus-tuzem maktabida o'qiydi. 12 yoshlarida bir boy savdogarga xizmatga yollanib, yozuv-chizuv

ishlari bilan mashgʻul boʻladi. Eng mashxur asarlari: «Oʻtkan kunlar» romani «Mehrobdan chayon» tarixiy romani «Kalvak Maxzumning xotira daftaridan» hajviy asari «Toshpoʻlat tajang nima deydi?» hajviy asari Abdulla Qodiriy 1894 yil 10 aprelda Toshkent shahrida tugʻilgan. XX asr yangi oʻzbek adabiyotining ulkan namoyandasi, oʻzbek romanchiligining asoschisi. 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi. Musulmon maktabida (1904—06), rus-tuzem maktabida (1908-12), Abulqosim shayx madrasasida (1916—17) taʼlim olgan; Moskvadagi adabiyot kursida (1925—26) oʻqigan. Eski shahar oziqa qoʻmitasining sarkotibi (1918), «Oziq ishlari» gazetasining muharriri (1919), Kasabalar shoʻrosining sarkotibi (1920), «Mushtum» jurnali tashkilotchilaridan va tahrir hayʼati aʼzosi (1923—26). «Toʻy», «Ahvolimiz», «Millatimga», «Fikr aylagil» kabi sheʼrlari, «Baxtsiz kuyov» dramasi, «Juvonboz» hikoyasi yozuvchining dastlabki asarlaridir (1914-15). «Uloqda» hikoyasi (1916), «Kalvak Maxzumning xotira daftaridan», «Toshpoʻlat tajang nima deydi?» (1920) kabi satirik hikoyalar muallifi. «Oʻtgan kunlar» (1924-26), «Mehrobdan chayon» (1929) romanlari, «Obid ketmon» (1934) qissasi yozuvchining ulkan mahoratini oʻzida mujassam etgan. Abdulla Shunosiyning «Fizika» (1928), N. V. Gogolning «Uylanish» (1935), A. P. Chexovning «Olchazor» (1936) asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan. Abdulla Qodiriy 1926 yilda «Mushtum»da bosilgan «Yigʻindi gaplar» maqolasi tufayli qisqa muddat qamalgan. 1937 yilning 31 dekabrda esa «xalq dushmani» sifatida ikkinchi bor qamoqqa olinib, 1938 yil 4 oktyabrda Toshkent shahrida otib tashlangan. Uning asarlari 1956 yildan boshlab oqlangan. Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofoti laureati (1991), «Mustaqillik» ordeni bilai mukofotlangan (1994). Abdulla Qodiriy 1937 yilning 31 dekabrda qamoqqa olindi. «Menga qoʻyilgan ayblarni boshdan oyoq rad etaman. Haqiqat yoʻlida hech qanday jazodan, qiynoqdan qoʻrqmayman. Agar otmoqchi boʻlsalar, koʻkragimni kerib turaman...» Abdulla Qodiriy 1938 yil 4 oktyabrda Toshkentda otildi. Uning asarlari XX sʼezddan soʻng, 1956 yildan boshlab yangidan nashr etila bordi. 1990 yilda Respublika prezidenti Farmoni bilan A. Qodiriy nomidagi Respublika Davlat mukofoti taʼsis etildi. Abdulla Qodiriy birinchi boʻlib Mustaqillik ordeniga munosib koʻrildi. Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Nomi abadiylashtirilib, haykallari barpo etildi. Bu oʻzbek xalqining oʻz buyuk farzandi xotirasiga hurmati boʻldi. Har qanday ishda boʻlgani singari asarlarini yozishga ham gʻoyat puxta tayyorgarlik koʻradigan yozuvchi 1917 — 1918-yillardan boshlab asosiy asari boʻlmish "Oʻtkan kunlar" romani uchun material yigʻishga kirishdi. Adib romanni 1919- yildan yoza boshladi. 1922-yilda birinchi oʻzbek romanining dastlabki boblari "Inqilob" jurnalida chop etildi. 1925- yilda romanning boʻlimlari alohida-alohida uch kitob tarzida, 1926- yilda esa "Oʻtkan kunlar" yaxlit asar sifatida bosilib chiqdi. Modomiki, biz yangi davrga oyoq qoʻydik, bas, biz har bir yoʻsunda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va shunga oʻxshash

dostonchilik, ro‘monchilik va hikoyachiliklarda ham yangarishg‘a, xalqimizni shu zamonning «Tohir-Zuhra»lari, «Chor darvesh»lari, «Farhod-Shirin» va «Bahromgo‘r»lari bilan tanishdirishka o‘zimizda majburiyat his etamiz.

Yozmoqqa niyatlanganim ushbu - «O‘tkan kunlar», yangi zamon ro‘monchilig‘i bilan tanishish yo‘lida kichkina bir tajriba, yana to‘g‘risi, bir havasdir. Ma‘lumki, har bir ishning ham yangi - ibtidoiy davrida talay kamchiliklar bilan maydong‘a chiqishi, ahllarining yetishmamlari ila sekin-sekin tuzalib, takomulga yuz tutishi tabiiy bir holdir. Mana shuning daldasida havasimda jasorat etdim, havaskorlik orqasida kechaturgan qusur va xatolardan cho‘chib turmadim. Moziyg‘a qaytib ish ko‘rish xayrlik, deydilar. Shunga ko‘ra mavzu‘ni moziydan, yaqin o‘tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo‘lg‘an keying «xon zamonlari»dan belguladim. Abdulla Qodiriy (Julqunboy) "O‘tkan kunlar" Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo‘ydik, bas, biz har bir yo‘sunda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va shunga o‘xshash dostonchilik, ro‘monchilik va hikoyachiliklarda ham yangarishg‘a, xalqimizni shu zamonning «Tohir-Zuhra»lari, «Chor darvesh»lari, «Farhod-Shirin» va «Bahromgo‘r» lari bilan tanishdirishka o‘zimizda majburiyat his etamiz. Jin bazmi: Ushbu hikoya 1916-yilda yozilgan bo‘lsa-da, birinchi bor 1921-yilda «Sharq chechagi» jurnalida bosilgan. Asar yozilganiga bir asr bo‘lganiga qaramay, unda tasvirlangan voqealar o‘zining originalligi, uslubiy ravonligi, tilining soddaligi va ifodaliligi bilan kitobxonlar e‘tiborini tortib kelmoqda. Hikoya dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan bo‘lib, jahon adabiyotining eng sara asarlari qatoridan joy olgan. «Uloqda» hikoyasi zamonaviy o‘zbek adabiyotining birinchi namunalariidandir. Hikoya 1915-yilda yozilib, 1916-yilda Toshkentda alohida kitobcha sifatida nashr etilgan. «Uloqda» hikoyasida adib quvonch bilan o‘limni yonma-yon tasvirlab, insonni hamisha aql-u idrok bilan ish tutishga undaydi, behuda narsalarga umrini sarflamay, ma‘rifatga, ma‘naviy yuksalish va madaniy turmushga intilib yashash g‘oyasini ilgari suradi.

Abdulla yoshiligidan uzoq umr kechirgan (Qodir aka 102 yil umr ko‘rgan) va ko‘pni ko‘rgan otasining hikoyalarini tinglab o‘tirar edi, otasidan u adabiy faoliyatida as qotgan sezgir kuzatuvchanlikni meros qilib olgan. Uning otasi bog‘dorchilikni juda yaxshi ko‘rgan, shu sabab, Qodiriyning o‘zini bog‘bonning o‘g‘liman, degan fikrlarini uchratish mumkin. Abdulla Qodiriy avvaliga musulmon maktabida (1904-1906), keyin - rus-tuzem maktabida (1908-1912) o‘qib, muvaffaqiyatli yakunlaydi. 1912 yil kelib, Abdulla Qodiriyning nisbatan birinchi adabiy tarjribalari boshlanadi. O‘zining ilk nashr etilgan asarlarida - "Xotinboz" (1915) va "Baxtsiz kuyov" (1915) hikoyalarida eski o‘zbek turmushining chizgilari hajviyona ifodalangan. 1915-1917 yillar Qodiriy Abdul Qosim madrasasida arab va fors tillarini astoydil o‘rganadi. Yozuvchining inqilobdan avvalgi asarlarida jadidchilik ta‘siri sezaladi.

Sovet davrida A. Qodiriy V. Ya. Bryusov (1924-1925) nomidagi Moskva adabiy kurslarida o‘qiydi, so‘ngra, 1925-1926 yillar Toshkentda, "Mushtum" o‘zbek hajviy

jurnalida ishlaydi. U yerda kitobxonning katta muvaffaqiyatiga sazovor bo'lgan ijodkorning hajviy hikoyalari va feletonlari chop etiladi. Qodiriyning roman va qissalari ("O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon"), shuningdek, jamoaviy ijodi ("Obid Ketmon" qissasi) XIX asr toshkentlik va qo'qonlik o'zbeklar hayotiga bag'ishlangan. "O'tgan kunlar" romani katta shuhrat qozongan. Barcha ziyolilar ushbu kitobni o'qishga intilgan. Va hatto, savodsiz kishilar uni tinglash uchun guruh bo'lib to'planishgan. Ko'plab o'zbek oilalarida romanning Otabek va Kumush qahramonlarining ismlari paydo bo'la boshlagan.

Abdulla Qodiriy qatag'on qilingan. 1937 yilning 31 dekabrda "xalq dushmani" sifatida hibsga olinadi, bunga hasadgo'y "qalamkash hamkasblari" qo'l urgan. 1938 yilning 4 oktabr kuni yozuvchi otib tashlangan, o'limidan so'ng oqlangan. Toshkentdagi Xo'ja Alambardor (Kamolon) qabristoniga dafn etilgan. "O'tgan kunlar" romani Unda muallif Toshkent hukmdori Azizbek mulkidagi xalq an'analari, diniy urf-odatlar, yozilmagan qonunlarni, inson huquqlari va qadr-qimmatlarining buzilishi haqida bayon etadi. Mug'ombir fitnachi, "gunohkor" larga nisbatan qattiqqo'l "qozi", uddabironmunofiq Azizbek uch yil Toshkentni shunday boshqaradiki, savdo-sotiq pasayib, usta-hunarmandlar xonavayron bo'lishadi, guruch va paxta hosildorligi sezilarli tushib ketadi.

Yozuvchi katta mahorat ila feodal voqe'likning chinakam ziddiyatlarini ochib bergan. Moddiy va madaniy boyliklarning yaratuvchisi sifatida xalq bir tarafdandavrlatchilik qo'riqchisi va himoyachisi, boshqa tarafdand, xonning jamiyat negiziga qarshi chiqib, zolimlarga qarshi qo'zg'alon ko'taradi. Shuningdek, xalqni katta soliqlar bilan ko'mib tashlagan hukmdorlarga qarshi chiqadi.

Romanning markaziy ixtilofi - ota va o'g'il o'rtasidagi ijtimoiy-axloqiy ziddiyatlar. Yosh Otabek "oila qurish" borasida ota-onasining topgan qiziga uylanib an'analarga qarshi qat'iyatli nuqtai nazarli yosh yigit, uning otasi Yusuf xoja eski tuzumdagi dunyo qarashli, qadimiy an'analarga tarafdori. Biroq, muallif ushbu oilaviy mojarolarni alohida voqea sifatida emas, umummillatli holat ko'rinishida bayon etadi.

Otabek va Kumush timsoli - o'zbek adabiyotidagi yangi hodisadir. Otabek boy oilaning farzandi, o'qimishli inson bo'lib, dunyoni o'ziga xos tarzda tushunadi, o'tkir adolat hissiga ega. Kumush unga manzur kelgan. U yaxshi tarbiyalangan, o'qimishli, tug'ma aql sohibasi, kelishuvchan. U Otabekni chin dildan sevadi. Ammo bu sevgi unga baxtsizlik keltiradi, zero, u eski an'analarga bo'ysunib, yaqinlari uning tuyg'ulariga quloq tutmaydi. Uning ma'naviy sifatleri, go'zalligi va boy ichki dunyosining shakllanishiga haqiqiy o'zbek ayoliga xos olijanoblik orzularini o'zida mujassam etgan onasi Oftob oyim sabab bo'lgan. U aqlli, xotirjam, bosiq, sezgir ona, haqiqatparvar inson, chaqqon beka. Shunga qaramay, Oftob oyim eski udumlar tarafdori - u erining istaklariga, irodasi va fikriga bo'ysunadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Toshkent:O‘zbekiston, 2017.
2. Oybek, Asarlar [19 jildli], 16-jild (Abdulla Qodiriyning ijodiy yo‘li), T., 1979;
3. Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida, T., 1988; Boqiy N., Qatlnoma, T., 1992;
4. Normatov U., „O‘tgan kunlar“ hayrati, T., 1996.
5. Karimov B. 20 asr o‘zbek adabiyotshunosligida talqin muammosi (Qodiriyshunoslik misolida). FFD dissertatsiyasi, T., 2002
6. Qo‘shjonov M. Abdulla Qodiriyning tasvirlash san‘ati. T.: Fan, 1966.
7. Mirzaev I. Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyutsiyasi. T.: Fan, 1977.
8. Qozoqov T, Ruzinov.B., & Vohidov, A. (2020). Buyuklarga beshik bo‘lgan Axsikent yohud Farg‘ona allomalari. *Toshkent: Navro‘z*.
9. Ro‘zinov, B. A., Nuriddinov, B. X., & Umarov, X. (2021). Farg‘ona vodiysi amaliy san‘atining ta‘lim tarbiyadagi o‘rni. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 117-123.
10. Ruzinov, B. A. (2022). Akhsikent Earthquake. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 9, 209-212.
11. Qozoqov,T., Ruzinov, B., & Vohidov,A. (2018). Ibrat nigohidagi Axsikent. *Toshkent: Navroz*.
12. qizi Mamadjonova, S. T. (2023). ZAMONAVIY O‘ZBEK MINIATYURASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(1 SPECIAL), 348-352.
13. Shokirjon o‘g‘li, S. M. (2022). O‘ZBEK VA XORIJIY MANZARACHI RASSOMLARNING MAVZULI KOMPOZITSIYA YARATISHDA RANG KOLORITLARIDAN FOYDALANISH. *Journal of new century innovations*, 17(1), 126-130.